

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

## Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari .....	6
<b>Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi .....	11
<b>Karimova Nilufar</b> , tayanch doktarant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan .....	16
<b>Peng Xinge</b> , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	21
<b>Xotamov Ibodulla Sadullayevich</b> , i.f.n., professor, <b>Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li</b> , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari.....	28
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	31
<b>Azlarova Munira Muhammad Amin qizi</b> , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective .....	40
<b>Kuzikulova Dilfuza</b>	
Qualitative functional development in industrial production.....	49
<b>Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna</b> , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati.....	54
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes.....	61
<b>Eshbayev Oybek</b> , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy.....	68
<b>Rozikov Ravshan</b> , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy.....	76
<b>Kurbanova Nigina</b> , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road .....	85
<b>Kalonov Mukhiddin Bahridinovich</b> , professor	
<b>Shao Junling</b> , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration.....	90
<b>Zhao shenghan</b>	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati.....	96
<b>Abduraximova Dilora Karimovna</b> , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	101
<b>Xasanxonova Nodira Isametdinovna</b> , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish.....	107
<b>Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich</b> , kafedra assistent	
Innovatsion faoliyatning asosi – intelektual salohiyat .....	112
<b>Kaxorova Anora Nusratovna</b> , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari .....	118
<b>Qahramon Usmanovich Umidullayev</b> , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari.....	124
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish .....	129
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari .....	133
<b>Sh. B. Babayev</b> , dotsent; <b>M. R. Qulmetov</b> , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari .....	138
<b>G'aniyev Shahriiddin Vohidovich</b> , professor, i. f. d. (DsC), <b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b> , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики .....	144
<b>Жиянова Наргиза Эсанбоена</b> , к.э.н., проф., <b>Азимжонова Малика Шавкат қизи</b> , специалист первой категории	
To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi .....	150
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b> , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
<b>Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli</b>	
"История экономических учений" как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов .....	160
<b>Хакимов Назар Хакимович</b> , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership .....	166
<b>Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li</b>	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
<b>Xasanova Zarina</b> , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili.....	178
<b>M. O. Hamroqulov</b> , katta o'qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
<b>Farhod Bagibekovich Xalimbetov</b>	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region) .....	188
<b>Saidov Nurali Rakhimovich</b>	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region. ....	193
<b>S. M. Rakhimova</b>	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров .....	197
<b>Джурабаев Отабек Джурабаевич</b> , доцент	
Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari....	204
<b>Hakimov Feruz Xurshid o'g'li</b> , talaba	
Hayot sug'urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagি o'rni .....	207
<b>Baratova Dinora Alisherovna</b> , katta o'qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari .....	213
<b>Qulmatova S.</b> , PhD, katta o'qituvchi; <b>Karimov Botir</b> , katta o'qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati .....	218
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , PhD, dotsent	
Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlari.....	223
<b>Odilova Sitora Sayfitdin qizi</b> , katta o'qituvchi	
Tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko'rsatkichlari .....	228
<b>Saydullayeva Fotima Jozilovna</b> , assistant	
O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.....	235
<b>Xasanov Xayrulla Nasrullahovich</b>	
O'zbekiston yoshlarida volontorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba .....	241
<b>Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich</b> , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе ....	247
<b>Оспан Айзада Бейсенқызы</b> , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
<b>Mirzoyev Feruz Mamurjonovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari .....	259
<b>Abdualim Abdujabbor o'g'li Abdurazzoqov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country's economic growth .....	267
<b>Rasulov Jamshid Shokir o'g'li</b>	
Bank daromadlilik ko'rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta'siri.....	274
<b>Madraimov Xabibulla Madaminovich</b> , assistant o'qituvchi	




Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari .....	282
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b> , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash .....	288
<b>Ergashova Nargiza Boboxonovna</b> , talaba	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari .....	296
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari.....	301
<b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining ahamiyati .....	306
<b>Babadjanova Malika Ruzimovna</b> , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli .....	312
<b>Kamilov Baxramjon Umardjonovich</b>	
Shaxs ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim.....	317
<b>Bekdavlat Aliyev</b> , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari .....	321
<b>O. T. Nurmatov</b> , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari.....	327
<b>Abdullayev Suyun Artiqovich</b> , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari.....	335
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari.....	346
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b> , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish.....	352
<b>D. A. Azlarova</b> , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development:	
Balancing Environment and Business Needs .....	360
<b>Kholikova Rukhsora Sanjarovna</b> , PhD, <b>Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli</b> , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari .....	364
<b>Zuhra Abdikarimova</b> , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfeli shakllantirish.....	370
<b>Sindarov Fazliddin Qahramonovich</b> , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari .....	376
<b>To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi</b> , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari.....	381
<b>B. K. Tuxliyev</b> , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida.....	386
<b>Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi</b> , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida).....	391
<b>Aminboy Sa'dullayev</b> , i.f.n., dotsent, <b>Dilshod Vaisov</b> , magistr, <b>Farhod Egamberganov</b> , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish.....	397
<b>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</b> , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari.....	403
<b>Muxtidinova Kamola Alisherovna</b> , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction.....	407
<b>Gafurov Olimjon</b> , teacher, <b>Khholmuminov Humoyun</b> , teacher, <b>Abrueva Sevinch</b> , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики .....	411
<b>Ф. Т. Абдувахидов</b> , доцент, <b>А. Ю. Нурмухаммедов</b> , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri .....	417
<b>Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna</b> , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan .....	420
<b>Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli</b>	



# SHAXS MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI HAMISHA MUHIM

Bekdavlat Aliyev

TDIU “Ijtimoiy-gumanitar kafedrasi” professori,  
falsafa fanlari doktori



**Annotatsiya:** maqolada jamiyatdagi axloqiy mezonlar ko'p jihatdan qonuniy yoki ma'muriy choralar bilan emas, balki jamoatchilik fikri, shaxsnинг xulq-atvorini baholash bilan belgilanishi tahlil qilinadi. Zero, bolalikdagi tarbiya, oilaviy muhit nazoratsiz xatti-harakatlar inson hayotida bir umir salbiy yoki ijobjiy fe'l-atvorga aylanib, odat bo'lib qoladi va ularning ish faoliyatida ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsning ma'naviy kamoloti Vatan taraqqiyoti va uning kelajagida muhim ahamiyat kasb etishi, bu masala ilmiy yechimlarini kutayotganligi tavsiflanadi.

**Kalit so'zlar:** olia, jamiyat, davlat, intellektual rivojlanish, tarbiya, ta'lif, xulq, individual, falsafa, odob, tadqiqot, ruhiyat, mafkura.

**Аннотация:** в статье анализируется тот факт, что этические нормы в обществе определяются не правовыми или административными мерами, а общественным мнением и оценкой поведения человека. Ведь неконтролируемое поведение в детстве, семейной среде, приобретает отрицательный или положительный характер в жизни человека, входит в привычку и влияет на его работу.

Описано, что духовная зрелость человека важна в развитии Родины и ее будущего, и что этот вопрос ждет научного решения.

**Ключевые слова:** Ключевые слова: семья, общество, государство, интеллектуальное развитие, воспитание, образование, поведение, личность, философия, этикет, исследование, психика, мировоззрение.

**Abstract:** the article analyzes the fact that ethical standards in society are determined not by legal or administrative measures, but by public opinion and evaluation of a person's behavior. After all, uncontrollable behavior in childhood, family environment, becomes a negative or positive character in a person's life, becomes a habit and affects their work.

It is described that the spiritual maturity of a person is important in the development of the country and its future, and that this issue is waiting for scientific solutions.

**Key words:** it is described that the spiritual maturity of a person is important for the development of the Motherland and its future, and that this issue is awaiting scientific solutions.

## KIRISH

Ta'lif-tarbiya masalasi bugunning masalasi emas, u hamisha hammamiz yaxshi bilamiz, balki bu borada insoniyat tarixiga nazar tashlansa — insonlar millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar o'z avlodlariga go'zal ta'lif-tarbiya berish bo'lgan. Bugungi ta'lif tarbiyani turli usullarini qo'llanayotgan zamondamiz o'tgan ajodolarimiz ta'lif-tarbiya masalasiga diqqat e'tiborli bo'lib kelganini anglaydi. Bugun aksar farzandlarimizni ta'lif tarbiyasini ko'rib ko'zlarimizga quvonch yoshlari kelsa, ba'zilarini ko'rib ularga yetarlicha tarbiya berolmaganimizga achinamiz.

Tarbiya borasida taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot -yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan hamisha dolzarb so'zlari naqadar haqiqat. Bugun ilm-fan va ta'lif izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shak-shubhasiz tarbiya ta'lifning asosida turishi shartdir. Shunday ekan, ilm-fan ta'lif-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, har bir pedagog, muallim va ustozning ta'lif berishdan maqsadi —kelajagi porloq, Vatan va el-yurt xizmatida turadigan kadrlarni tarbiyalash bo'lar ekan, bunday ta'lif-tarbiya o'z samarasini bermay qolmaydi. Ya'ni, bugungi kunning



professor-o'qituvchisi ta'lif berayotgan shaxsga fidoyilik bilan ta'lif berishi, qolaversa, jonkuyar ustoz bo'lishi shart. Kadrlar tarbiyasi davlat uchun, nafaqat davlat, balki butun jamiyat ma'naviy-moddiy tarqqiyoti uchun muhim.

## ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan 2022 yil 20 dekabrdagi Murojaatnomasi<sup>1</sup>da alohida ta'kidlanganidek, "Ta'lif sifatini oshirish — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir. Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek: "Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi".

davlatimiz rahbari sohada boshlagan islohotlarni davom ettirishimiz, ta'lif dargohlarida o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz lozim.

Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi, avvalo, boy tarixiy merosimizning tiklanishi, an'analarimizning saqlanishi va xalqimiz ma'naviyati yuksalishi bilan ilm-fan rivoji hamda ta'lif-tarbiya sifatiga uzviy bog'liqligi shubhasiz. Jamiyat taraqqiyoti va unga uyg'un bo'lgan ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalash jarayoni ana shu omillarning o'zaro birligi va aloqadorligi asosida amalga oshishi insoniyat tarixida isbotlangan haqiqatdir.

Yangi O'zbekistonda ushbu qonuniyatga og'ishmay amal qilinmoqda. Xalq ma'naviyatini yuksaltirishga har tomonlama shakllangan, zamonaviy tafakkurli yosh avlodni kamolga yetkazishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ta'kidlash joizki, hech qachon ma'naviyat va ma'rifat bilan ta'liftarbiya bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini quvvatlab, o'rnini to'ldirib, o'zaro ta'sirlanib, rivojlana boradi.

Bu jihatdan mamlakatimizda 2023 yilda sifatlari ta'limga yuksak e'tibor qaratilayotgani va bu jarayonda ma'naviy rivojlanish asosida taraqqiyotni ta'minlashga harakat qilinayotgani bugungi hayot talabini aks ettiradi, albatta. Sifatlari ta'lif-tarbiyaning mazkur jabhadagi muhim vazifasi yoshlarda o'zlikni anglash tuyg'usini tarbiyalash, ajdodlardan qolgan moddiy va ma'naviy merosning boshqalar oldida nechog'liq ulkan ahmiyat kasb etishini anglatish, ular bilan faxrlanish va g'ururlanish hissini kuchaytirishdan iborat.

Ta'kidlash joizki, tarbiya insonlarning faoliyati jarayonida ularning ongi va irodasini o'stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarbiya ijtimoiy hodisa bo'lib, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'ziga xos mazmun va amalga oshirish shakliga egadir. Bugungi yosh avlodni milliy-ma'naviy ruhda tarbiyalashda milliy qadryatlar va umumbashariy g'oyalari o'ziga xos ahmiyat kasb etmoqda. Dunyoda ma'no izlagan kishi ta'lif-tarbiya sari talpinib, yaxshilik va yomonlikning farqini anglab oladi. Shu sababdan, Yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasida uch manbaadan foydalanish mumkin. Bular:

1. Umuminsoniy qadriyatlar.
2. Islom ta'liloti.
3. O'zbek milliy urf-odatlari.

Yuqorilagi omillar bir-biri bilan bog'langan bo'lib, u Abdulla Avloniy aytganidek: "Agar inson yaxshi tarbiya topib, buzuq hulqlardan saqlanib, go'zal hulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul bahtiyor inson chiqar..." Shu sababdan, Abdulla Avloniy tarbiyaning inson hayotida zarurligini nazarda tutib "Tarbiya-hayot yo mamot" deb ta'kidlagan edi. Tarbiyaviy jarayon ongli, ma'suliyatli faoliyat bo'lib, unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib tarbiyalashga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Bejizga xalqimiz "Beshikdan qabrgacha ilm izla" demagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xo'sh bugun ota-onalar farzand tarbiyasiga nega e'tiborsiz? Farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishiga qanday omillar to'sqinlik qilyapti? Ota-onalar farzand tarbiyalash metodlarini biladimi? Mazkur savollar bizga optimal yechim topish vazifasini ko'ndalang qo'ymoqda. Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilimli bo'lishiga, tarbiyasiga tikilayotgan bir vaqtida davlat tmonidan yaratilayotgan shart-sharoitlarga qaramasdan otna-onalarda farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik mavjudligi tahlil qilinmoqda.

Bu masala chuqur ilmiy tadqiqotlar va ommaviy so'rovnomalari o'tkazishni talab etadi. Aniqlangan muammolarni ilmiy asoslangan holda bartaraf etish esa asosiy masala.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (2022-yil 20-dekabr). 12:15 / 26.12.2022 2464.



Masalan, inson rivojlanishi va jismoniy rivojlanishi biologik xususiyatlarga bog'liq bo'lib, morfologik, biokimyoviy va fiziologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ammo ijtimoiy rivojlanish psixologik, aqliy, intellektual rivojlanish bilan tavsiflanadi. Falsafa konsepsiyasining rivojlanishi – bu bir holatdan ikkinchisiga o'tish, davom etayotgan miqdoriy va sifatiy o'zgarishlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Inson ijtimoiy taraqqiyot cho'qqisiga chiqqanda, uni ongi yuksak va o'zini o'zi anglaydigan, mustaqil ishlashga qodir odam deyiladi. Inson shaxs sifatida tug'ilmaydi.

Demak, barkamol inson uchun zarur bo'lgan quyidagi xususiyatlarni shakllantirishga erishish lozim:

- ijobiy fazilatlar mohiyati, mazmunini to'g'ri tushunish hamda tahlil qilib, munosabat bildira olish;
- jamoada yashash, mehnat qilish malakalarini egallash;
- barkamol insonni tasavvur etish, uning ma'naviy qiyofasini shakllantirish usullarini izlash. O'quvchilarni ma'naviy boy, jismoniy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash maqsadida dastlab ularning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash lozim. O'quvchilar qalbini odob-axloq nurlari bilan yoritmoqchi bo'lgan tarbiyachi
- o'qituvchi chuqur bilim, yuksak mahorat va tarbiyachilik san'atini egallamog'i, buning uchun:
- ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda o'qituvchi–tarbiyachi nazariy va amaliy asoslar haqida bilimga ega bo'lishi;
- ommaviy axborot vositalari materiallari bilan tanish bo'lishi va ulardan kerakli joyda unumli foydalana olishi;
- ta'lim to'g'risidagi axborotlardan, yangi pedagogik texnologiyalardan voqif bo'lishi;
- insonni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda o'zbek xalqining milliy va ma'naviy qadriyatlaridan, manbashunosliqdan xabardor bo'lishi va unga amal qilishi;
- ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda o'quvchi yoshlarning ruhiyati, qiziqishi, jamoadagi ijobiy va salbiy sifatlarining mavjudligi darajasiga e'tibor berishi;
- har bir masalaga, voqe-a-hodisaga ijodiy yondashishi, tarbiyaviy tadbirlarning sifat va samaradorligini oshirishda yangicha ishlash metodi va shakllaridan foydalanishi;
- XXI asrni qarshi olayotgan o'zbek oilasida yuksak ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda mahalla va jamoatchilikning ijobiy ta'sirini 5 kuchaytiruvchi tadbirlarni joriy etishi zarur.

Shaxs sifati "individuallik" tushunchasi bilan to'ldiriladi. Individuallik deganda, bir kishining boshqasidan o'ziga xos xususiyatlari va farqlari tushuniladi. Individuallik, qoida tariqasida, mijozning o'ziga xos xususiyatlari, uning ijtimoiy faolligiga va oqilona xatti-harakatlariga tegishlidir. Insonni ijtimoiy mavjudot sifatida tasvirlash uchun "individual" tushunchasiga to'xtalib o'tish kerak. "Individ" atamasi bitta, faqat, bitta odamni bildiradi. U insoniyatning alohida vakili sifatida talqin qilinadi. Ya'ni har qanday aqli raso odam shaxs bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, shaxs hayot davomida rivojlanadi va shakllanadi. Rivojlanish – bu, birinchi navbatda, shaxsning miqdor va sifat o'zgarishi jarayonidir. Inson tug'iladi va o'sadi, organizm organlari va tizimlari kengayadi, u so'zga, so'ngra so'z boyligiga ega bo'ladi. Har xil ijtimoiy xususiyatlar va axloqiy ko'nikmalarni, mehnat ko'nikmalarini egallaydi.

## MAVZUNING NATIJADORLIGI

Inson rivojlanayotgan haqiqiy hayotga muhit deyiladi. Shaxsning rivojlanishiga turli tashqi omillar, jumladan, geografik, ijtimoiy, ta'lim va oilaviy hayot ta'sir ko'rsatadi. Atrof-muhit rivojlanishining ta'siri haqida gap ketganda, birinchi navbatda ijtimoiy va oilaviy muhit nazarda tutiladi. Ijtimoiy muhitni tushunishga ommaviy tuzilish, ishlab chiqarish tizimining munosabatlari, ijtimoiy jarayon va boshqalar kiradi. Eng yaqin muhit – oila, qarindoshlar va do'stlardir.

Insonning ma'naviy ongi, insoniy fazilatları va kamchiliklari dastlab oilada shakllanadi. Bu jarayon hech qachon to'xtab qolmaydi<sup>2</sup>.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamat masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q.

Qanchalik murakkab bo'lmasisin, mакtab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki biz ko'p vaqt yo'qotganmiz.

Agar kimda-kim maktab bu faqat Xalq ta'limi vazirligining ishi, deb o'ylasa, mutlaqo yanglishadi.

<sup>2</sup> Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. –T.: Ma'naviyat. 2018. – 12-b.



Maktab ta'limi sohasidagi islohotlar vazirlik va idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyolilar, keng jamoatchilikning vazifasi bo'lishi shart va zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin".

Inson taraqqiyotiga, ayniqsa, bolalik davrida oilaviy muhit katta ta'sir ko'rsatadi. Uyda, birinchi inson hayotining rivojlanishi va shakllanishi hal qilinadi. Odatda, bola o'zi rivojlanayotgan oila haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Oila ko'p jihatdan bolalarning manfaatlari va ehtiyojlarini, g'oyalari va kelajagini belgilaydi. Oila – jamiyatning eng kichik a'zosi. Ijtimoiy muhitdan odam hayotiy tajribalarni, o'zini tutish, gapirish, fikrash va uning usullarini va boshqalarni o'rganadi. Inson kamolotida ijtimoiy tarmoqlar, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar ham muhim rol o'yaydi. Hatto ijtimoiy muhitda ham nosog'lom guruhlar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, masalan, qimor, ichkilikbozlik, giyohvandlik, talonchilik, savodsizlik va boshqalar. Ammo shuni yodda tutish kerakki, hamma bir xilda ta'lim oladi, lekin oilalar va qarashlar bir xil emas.

Insonga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta'lim-tarbiya va umuman, ijobiy xislatlarni o'rgatuvchi mакtab bu-oiladir. Xalqimizda "Qush uyasida ko'рганини qiladi", degan maqol bor. Tarbiya – oiladan boshlanadi, desak xato qilmaymiz. Biz bunda sog'lom, yetuk, komillik sari intiladigan oilani nazarda tutyapmiz. Oila qancha sog'lom bo'lsa, jamiyat ham shunga mutanosib bo'ladi. Lekin tagiga zil ketgan, mo'rt oilalar oxiri ajralish bilan tugaydi, bolalar yetim, xonadonlar parokanda bo'ladi. Bu esa, jamiyat ravnaqiga albatta putur yetkazadi<sup>3</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shaxs axloqiy ma'naviy tarbiyasi bugungi kunning eng ustuvor vazifalaridan biridir. Har bir inson o'z genetikasi va muhitining ma'lum ulushi bilan rivojlanadi. Tarbiya genetika va atrof-muhit ta'sirini to'g'rileydi. Ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkabligi bilan bir qatorda ta'larning o'rni ham doimiy ravishda o'sib bormoqda.

Hozirgi uzlusiz ta'lim sharoitida insonning hayotda samarali ishtirok etishi qiyin. Xususan, ta'lim hal qiluvchi vosita bo'lib, u orqali shaxsning ijtimoiy rivojlanishi dasturi, uning va tug'ma qobiliyatları qanot ochadi.

Ota-onalar ana shu nomutanosiblikning oldini olish uchun farzandlarda, ayniqsa o'zidan uzoqda yashayotgan o'g'il-qizlariga ularning mustaqil hayot boshlashidan oldinroq sog'lom hayot tarzini rejalashtirishga yordam berish zarur.

Bunda yoshlar quyidagilarga e'tibor berishlari muhimdir:

- Hayot tarzida ota-onasi oilasining qaysi an'analarini davom ettirishi mumkinligi, 70 turar joy va iqtisodiy-maishiy imkoniyatlari; kirim-chiqimni to'g'ri yurita olish va oila daromadi manbalari, uni to'g'ri tashkil etish malaka va ko'nikmalarini hosil qilishi.
- Oila ma'naviy-psixologik muhitini yarata olish asoslarini bilishi.
- Oila ma'suliysi va vazifalarini jamiyat talablari bilan uyg'unlashtirib olib borishni anglab olishi va boshqalar.

Binobarin, genetik omillar ta'siri ostida shaxsiyat va individual xususiyatlarning rivojlanishi, muhit va ayniqsa ta'lim va tarbiya vaqt o'tishi bilan tabiiy muhit to'siqlarini, ijtimoiy ta'sirni, shuningdek, bolalarni tarbiyalashda oilaviy xatolarni olib tashlaydi va to'g'rileydi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (2022-yil 20-dekabr). 12:15 / 26.12.2022 2464.
2. XS.uz>O'z...-istasang-kasbi-kamol-et. 18. 01.2021.
3. M. Rahmatov, B. Zaripov. Yangi O'zbekiston Uchinchi renessansostonasida. – T.: "Zamin Nashr", 2021. – 56-b.
4. Nazarov L., Ochilidiev A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. – T.: "Yangi asr avlod", 2002. – 106–109-b.
5. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. – T.: "Akademiya", 2005. – 120–130-b.
6. "Ona va bola" davlat dasturi to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 5 fevral № 68 qarori. – 25-bet.
7. Amir Temur hikmatlari. – T.: "Mehnat", 1996. – 96-bet.
8. Arabov I., Raximov X. Etika i psixologiya semeynoy jizni. – Dushanbe: "Maorif", 1998. – 42-bet.
9. Axloq-odobga oid hadis namunalari. – T.: "Fan", 1999. – 172-bet.

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 72-b.

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.